
1 iyun kuni joriy oy uchun pensiya va nafaqalar to'lovi mablag'lari 76 foiz moliyalashtirilb berildi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Farg'ona viloyat boshqarmasi shuni ma'lum qiladiki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qaroriga muvofiq, Pensiya jamg'armasiga pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida bugun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Farg'ona viloyat boshqarmasi tomonidan joriy oy pensiya va nafaqa to'lovlari 137 540,0 mln sum (76,0 %) mablag' moliyalashtirib berildi.

Eslatib o'tish joizki, ushbu moliyalashtirish qonun hujjatlariga muvofiq, har oyning 20 sanasidan kechiktirmay to'liq amalga oshirilmoqda.

Bu haqda viloyat pensiya jamg'armasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Elyorbek Asronqulov viloyat hokimligi axborot xizmatiga ma'lumot taqdim etdi.

2018-06-01 18:19:45